O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Rektor G. Rixsiyeva
2021-yil“28” 08

# TARIXIY TADQIQOT METODOLOGIYASI VA ZAMONAVIY USULLARI

## FANINING O‘QUV DASTURI

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200000 | - | San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 220 000 | - | Gumanitar fanlar |
| **Mutaxassislik:** | 70220301 | - | Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turlari bo‘yicha) |

**Toshkent - 2021**

| | |
|---|---|
| | Urakov D.J. - O'zMU "Jahon tarixi" kafedrasi mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent (turdosh OTM). |



| Fan/modul kodi<br>TTM104 | | O'quv yili<br>2021-2022 | Semestr<br>2 | ECTS - Kreditlar<br>4 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | | Ta'lim tili<br>O'zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari<br>4 | |
| 1. | Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Tarixiy tadqiqot metodologiyasi va zamonaviy usullari | | 60 | 60 | 120 |

2.

**I. Fanning mazmuni**

Dasturda tarixiy tadqiqotlar metodologiyasi va zamonaviy usullarini o'rganishda muhim ilmiy qo'llanmalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Unda tarix fanining maxsus usullari bilan birgalikda ilmiy tadqiqotlarning umumiy usullari, shuningdek, boshqa fanlardan tarix faniga o'tgan usullar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, dasturda jahon tarixshunosligida XX asrning o'rtalaridan boshlab paydo bo'la boshlagan hamda tarixiy bilimlarning yangi paradigmalariga aylangan yangi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur dasturda ilmiy tadqiqotning umumiy usullari, tarixiy tadqiqotning maxsus usullari hamda hozirgi kunda jahon tarixshunosligida keng qo'llanilayotgan fanlararo yondashuv va usullarga e'tibor qaratildi.

Talabalar bu o'quv kursidan, birinchidan, tarixiy tadqiqot usullari va yo'nalishlari haqidagi nazariy bilimga ega bo'lsa, ikkinchidan, ularni zamonaviy tarixiy tadqiqotlarda qanday qo'llash mumkinligini o'rganadi.

Talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish uchun har bir ma'ruzadan keyin nazorat savollari berildi. Bundan tashqari, foydalanilgan va tavsiya etilgan turli tillardagi adabiyotlar ro'yxati berildi. Ularning aksariyati oxirgi 15-20 yillarda chop etilgan tadqiqotlarni tashkil etadi.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Tarix ilmiy bilim sifatida**

"Tarixiy tadqiqotlarning zamonaviy usullari" tushunchasi. Kursning umumiy tasnifi, asosiy maqsad va vazifalari. Kursning nazariy va metodologik asoslari. Tarixiy tadqiqotlarning zamonaviy usullariiga oid atamalar. Fan tarixi va boshqa fanlar bilan bog'liqlik taraflari.

**2-mavzu. Ilmiy tadqiqot usullari va ularni klassifikatsiyalash.**

Tarixiy tadqiqotlarda sinergetik yondoshuv. Ilmiy usulning tipologiyasi. Falsafiy usullar (dialektik-materialistik, metafizik), umumiy ilmiy, maxsus ilmiy, muammoviy. Bilishning dialektik usuli. Kuzatish va bayon.

Eksperiment. Taqqoslash. Abstraksiyalash va abstraksiyalashdan aniqlikka o'tish. Aksiomatik usul. Gipoteza usuli. Tahlil va sintez. Induksiya va deduksiya. Analogiya va modellashtirish. Tarixiy tadqiqotlarda sinergetik yondoshuv.

**3 mavzu. Tarixiy jarayonlarni o'rganishda sivilizatsiyaviy va formatsiyaviy yondashuvning o'rni**

Tarixiy jarayonning nazariy kontseptsiyasini yaratishga uringan dastlabki tadqiqotchilardan biri K.Marks edi. K.Marks kontseptsiyasining asosiy qoidalari quyidagilardan iborat: insonni mehnat yaratgan; jamiyat hayotining asosini moddiy ishlab chiqarish tashkil etadi, shuning uchun ham jamiyat bir tekisda rivojlanadi. Rossiyada K.Marks ta'limoti XIX asr oxiri - XX asr boshlarida V.I.Lenin tomonidan rivojlantirildi.

Tarix fanida formatsiyaviy yondashuvga sivilizatsiyaviy yondashuv qarshi turadi. Tarixiy jarayonga sivilizatsiyaviy yondashuvi XVIII asrda vujudga kelgan bo'lsa-da, faqat XIX asr oxiri - XX asrlarda u to'liq shakllandi. Bu metodologiyaning yorqin tarafdorlari M. Veber, A. Toynbi kabilar.

**4 mavzu. Tadqiqotlarda fanlararo yondashuv**

Tarixiy antropologiya va yangi ijtimoiy tarix borasida, shuningdek, sinergetika - bilishda fanlararo yondashuv uslubi haqida ma'lumot berish. Fanlararo yondashuv, tarixiy antropologiya, yangi ijtimoiy tarix, intellektual tarix, harbiy tarixiy antropologiya, sinergetika, bifurkatsiya, fluktuatsiya, attraktor. Zamonaviy ijtimoiy fanlarda noan'anaviy yondashuvlar. Edvarda Saidning sharqshunoslikka oid nazariyasi.

**5 mavzu. Tarixiy tadqiqotlarning maxsus usullari va tamoyillar**

Tarixiy tadqiqotning maxsus usullari. Tarixiy tadqiqotlarning usullari mohiyati va ularning klassifikatsiyasi. Tarixiy-genetik, tarixiy taqqoslash, tarixiy tipologik, tarixiy tizimli, ijtimoiy tarixiy voqelikning diaxron tahlil usuli. Tarixiy tadqiqotlarda tushunchalar va kategoriyalarning roli. Tarixiy tadqiqotlarda tarixiylik tamoyili.

**6 mavzu. Tarixiy tadqiqotlarda miqdoriy va kontent-tahlil usullari**

Tarixiy tadqiqotlarda miqdoriy usullar. Miqdoriy usullar tushunchasi. Tarixiy tadqiqotlarda miqdoriy usullarning o'rni. Ilmiy tadqiqotlarda matematikalashtirish va ularning tarix fanida aks etishi. Tarixiy voqeliklarni o'lchashning o'ziga xos xususiyatlari.

**7 mavzu. Tarixga mikro va makroyondashuvlar**

Tarixga mikro va makroyondashuv tushunchalari, mikrotarixning vujudga kelishi va uning sabablari, mikro va makrotarixning o'zaro ta'siri, lokal tarix borasida yangi ma'lumotlar taqdim qilish. Mikrotarix, voqeaviy tarix, lokal tarix, personalistika, F.Brodel, Dj. Levi, annallar maktabi, memuar manba,



4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. - T.: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.
5. Барг М.А. Категории и методы исторической науки. - М., 1984.
6. Бородкин Л.И. Контент анализ в исторических исследованиях. - М., 1984.
7. Бродель Ф. Структуры повседневности: Возможное и невозможное / Бродель Ф. Материальная цивилизация, экономика и капитализм, XV - XVIII вв. в 3-х т. Т.1. - М., 1986. - 621 с.
8. Гинзбург К. Микроистория: две-три вещи, которые я о ней знаю // Современные методы преподавания новейшей истории: Материалы из цикла семинаров при поддержке TACIS / Ред.: А. О. Чубарьян и др. - М., 1996. - С. 207-236.
9. Гуревич А. Я. Исторический синтез и школа «Анналов». - М: Индрик, 1993.
10. Йоргенсен, Марианне В., Филлипс, Луиза Дж. Дискурс-анализ. Теория и метод / Пер. с англ. - 2-е изд., испр. - Харьков: Изд-во «Гуманитарный центр», 2008. - 352 с.
11. Историк в поиске. Микро и макроподходы к изучению прошлого. Доклады и выступления на конференции. 5-6 октября 1998. - М., 1999.
12. Davis N. Z. The Shapes of Social History // Storiadellastoriografia. - 1990. -N 17. - P.28-34.
13. Elizabeth A. Constantine. Public discourse and private lives: Uzbek women under Soviet Rule, 1917-1991. PhD diss. - Indiana University, 2001. - 295 p.

**Axborot manbalari**

14. www.globalaffairs.com
15. www.lenta.ru
16. www.mid.ru
17. www.strana.ru
18. www.whitehouse.gov/news/releases
19. http://asiapacific.narod.ru/countries/china/special_way_china.htm

7. O'quv dasturi "Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2021 - yil "26" 08 dagi "1" - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2021 - yil "28" 08 dagi "1" - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

8. **Fan/modul uchun mas'ullar:**

S.B.Shodmanova - TDSHU, "Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi" kafedrasi professori, t.f.d.

9. **Taqrizchilar:**

I.M. Shamsiyeva - TDSHU, "Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi" kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi

| | |
|---|---|
| | asoslash, ilmiy manbalar bilan ishlash, zamonaviy axborot qidiruv usullari, ma'lumotlarni tahlil qilish va ilmiy tadqiqot masalalarini hal etishda ulardan foydalanish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***.<br>• dunyo mamlakatlarining taraqqiyot xususiyatlariga oid ilmiy adabiyotlarini tavsiflash, ilmiy tadqiqot institutlari fondlari materiallaridan foydalanish va amaliyotda qo'llash ***malakalariga ega bo'lishi*** **kerak**. |
| **4.** | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlar qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| **6.** | **VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari hamda axborot manbalari**<br>**Asosiy adabiyotlar**<br>1. Шадманова С.Б. Тарихий тадқиқотлар методологияси ва замонавий усуллари. Дарслик. - Тошкент: Barkamol fayz media, 2018. - 216 б.<br>2. Шадманова С.Б., Юлдашев М. Тарихий тадқиқотларнинг методологияси ва замонавий усуллари. Тошкент: «O'zbekiston», 2019.<br>3. Февр Л. Бои за историю. - М.,1991.<br>4. Медушевская А.Н. Источниковедение: теория, история, метод.- Б., 1997.<br>5. Русина Ю.А. Методология источниковедения. – Екатеринберг. 2015.<br>6. Ковальченко И.Д. Методы исторического исследования. - М.: Наука, 1987.<br>7.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. - T.: "O'zbekiston", 2017.- 104 b.<br>2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: "O'zbekiston", 2016.- 56 b. |



| | |
|---|---|
| | tarix, personalistika, F.Brodel, Dj. Levi, annallar maktabi, memuar manba, "oddiy" insonlar, "yangi tarix fani".<br>Mikro tahlilning XX asrning 60 yillarida g'arb ijtimoiy fanlarida vujudga kelishi. Mikrotarixning Yevropa va AQSh tarix fanida paydo bo'lishi va uning sabablari (Dj.Levi, K.Ginzburg, K.Poni, R.Fogel, S.Engerman). Tadqiqotlarning predmeti va "masshtabi". Mikrotarix va makrotarixning ustunlik jihatlari. "Lokal tarix", "kundalik turmush tarixi", personalistika.<br>**8 mavzu. Kundalik hayot tarixining shakllanishi, rivojlanishi va tadqiqot usullari**<br>Kundalik hayot tarixining shakllanish jarayonlari hamda kundalik hayot tarixini tadqiq etish usullari xususida talabalarga ma'lumotlar taqdim qilish. Kundalik hayot tarixi, "Annallar" maktabi, inson, shaxsiy va uy hayoti, ijtimoiy qatlam, jamiyat, intervьyu, xatlar, kundaliklar, esdaliklar.<br>**9 mavzu. Gender va mentalitet tarixi**<br>Fanlararo tadqiqotlarning o'sib borishi va yangi tadqiqot yo'nalishlarining vujudga kelishi, mentalitet tarixi, gender tarixi, vizual tadqiqotlar borasida talabalarda yangi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.<br>Fanlararo tadqiqot, mentalitet tarixi, gender tarixi, vizual tadqiqotlar, "Annallar" maktabi, "yangi tarix fani", sotsiologik usullar, "xotin-qizlar tarixi".<br>**10 mavzu. Og'zaki tarix usullari**<br>Og'zaki va kundalik hayot tarixi usullari.Og'zaki tarixning shakllanish jarayoni va uning akademik ilm tomonidan tan olinishi. Og'zaki tarixning o'ziga xos xususiyatlari va asosiy yutug'i. Tadqiqotchilar tomonidan "intervyu" olib borilishi. «Annallar» maktabi va kundalik tarix shakllanishi. Fransuz olimi Fernan Brodelning "Kundalik tarixi tizimi" («Struktura povsedenevnosti») kitobi. Jahon tarixshunosligidagi bu boradagi tajribalar va O'zbekiston tarix fanida bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar.<br>**11 mavzu. Diskurs va semiotik tahlil usullari**<br>Diskurs tushunchasi, tarixiy manbalarni diskurs tahlil usuli, diskurs tahlilning bosqichlari, semiotik tahlil usuli borasida talabalarga bilim va ko'nikmalar berish. Diskurs tahlil, diskurs nazariyasi, ijtimoiy voqelik, madaniy-semiotik yondashuv, madaniyat matn sifatida, madaniyat tizimida belgilar, ramzlar, madaniy kodlar, tarixiy semiotika, tarixiy manbalar va hujjatlarni tahlil qilish, semiotik usullar.Diskurs tarixiy bilimning mavjudligi usuli sifatida. «Diskurs» atamasi. Diskurs tahlil an'analari. Atamalar tahlili usuli va semantika. Tarixiy manbalarda atamalar tahlili. Toponimik tahlil atamalar tahlilining alohida turi sifatida.<br>**12 mavzu. Vizual tadqiqotlar tarix fanidagi yangi yo'nalishlar sifatida** |

Vizual tadqiqotlar. Fanlararo tadqiqotlarning ortishi va yangi tarixiy fanlarning shakllanishi. Gender tarixi va jahon tarixshunosligida uning paydo bo'lishi. Vizual tadqiqotlar va ularning usullari. Vizual manbalarni o'rganishning bosqichlari. Vizual tadqiqotlarda fanlararo yondoshuvning qo'llanishi.

**13 mavzu. 21 asr tadqiqot kompetensiyalari va zamonaviy tarixiy tadqiqotlar**

21 asr ko'nikmalari modellari. 21 asr ko'nikmalari modellari. Tadqiqotchi kompetensiyalari va 21 asr ko'nikmalarini ilmiy tadqiqot ishida qo'llash. 2015 yilda Davosda o'tkazilgan Jahon iqtisodiy forumida 2020 yildagi mutaxassisi uchun kerak bo'ladigan 10 ta ko'nikma ( Soft Skills). Kritik - tanqidiy yoki tahliliy fikrlash (Critical Thinking); Kreativlik - ijodkorlik (Creativity); Kommunikativ ko'nikma (Communication); Kooperativlik - hamkorlik (Coordinating With Others).

**14 mavzu. Ijtimoiy tarix va uning metodologiyasi**

Ijtimoiy tarix - tarixiy bilimlarning yangi yo'nalishi bo'lib, uning ob'ekti inson (sosium, qatlam, tabaqa, jamiyat) hisoblanadi. Ijtimoiy tarix predmeti: turmush tarzi, oila, gender, "erkak" va "ayol", bolalik tarixi, shahar tarixi, mehnat va jamoat faoliyati, diniylik tarixi, jamiyatdagi marginallashuv jarayonlari, kasallik va davolash tarixi.

**15 mavzu. Ilmiy maqola yozish metodologiyasi**

Ilmiy maqola va tezis tushunchalari. Ilmiy maqola mavzuni tanlash va uning tuzilishi: kirish, adabiyotlar tahlili, metodologiya, tahlil natijalari, xulosa va takliflar, adabiyotlar ro'yxati. Annotasiya tushunchasi va uni tayyorlash. Maqola mezonlari: dolzarblilik va argumentasiya.

**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:
1. Tarix ilmiy bilim sifatida.
2. Ilmiy tadqiqot usullari va ularni klassifikatsiyalash.
3. Tarixiy jarayonlarni o'rganishda sivilizatsiyaviy va formatsiyaviy yondashuvning o'rni.
4. Tadqiqotlarda fanlararo yondashuv.
5. Tarixiy tadqiqotlarning maxsus usullari va tamoyillar.
6. Тарихий тадқиқотларда миқдорий ва контент-таҳлил усуллари.
7. Tarixga mikro va makroyondashuvlar.
8. Kundalik hayot tarixining shakllanishi, rivojlanishi va tadqiqot usullari.
9. Gender va mentalitet tarixi
10. Og'zaki tarix usullari
11. Diskurs va semiotik tahlil usullari.
12. Vizual tadqiqotlar tarix fanidagi yangi yo'nalishlar sifatida.



13. 21 asr tadqiqot kompetensiyalari va zamonaviy tarixiy tadqiqotlar
14. Ijtimoiy tarix va uning metodologiyasi
15. Ilmiy maqola yozish metodologiyasi.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:
1. Tarixiy ma'lumot va asosiy metodologik muammolar.
2. Tadqiqot vazifasini qo'yish.
3. Tarixiy bilimlarning haqqoniyligi muammosi.
4. Mishel Fuko va uning "Arxeologiya znaniy" asari.
5. Edvard Saidning "Orientalizm" nomli asarida tadqiqotlarning metodologik muammolari.
6. Tarixiy tadqiqotlarda sinergetik yondashuv va uning ahamiyati.
7. An'anaviy bibliografik asarlarning tarixiy tadqiqotlardagi o'rni.
8. Elektron ma'lumot bazalaridan tarixiy tadqiqotlarda foydalanish masalasi.
9. I.D.Kovalchenkoning "Metodi istoricheskogo issledovaniya" nomli kitobida maxsus tadqiqot usullarining ko'rsatilishi
10. A.Toynbining "Postijenie istorii" nomli ( M., 1991) asarida tarixiy tadqiqotlarning muammoviy masalalari yoritilishi.
11. K.Yaspersning "Smisl i naznachenie istorii" asarida tarixiy tadqiqotlarning usullari (M., 1994).
12. M.Fukoning "Slova i veщi: arxeologiya gumanitarnix nauk" asarining tarixiy tadqiqotlar metodologiyasidagi ahamiyati (SPB, 1994).
13. R. Kollingvudning asarlarida tarix metodologiyasi
14. Zamonaviy tarixshunoslikda shaxsiy hayot tarixi
15. «Xotin qizlar tarixi» ini o'rganish usullari
16. Tarixiy romanlar o'tmish haqidagi bilim manbai sifatida
17. An'anaviy va zamonaviy tarixiy biografiya

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

**3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

**Magistr bilishi kerak:**

- Tarixiy tadqiqot metodologiyasi va zamonaviy usullari fanining maqsad va vazifalari fan ta'rifi va asosiy xususiyatlari, boshqa fanlar bilan bog'likliki va fanning jamiyatdagi o'rni, tarixiy tadqiqotlarning ta'rifi va tasnifi, tarixiy tadqiqot strukturasi va asosiy usullari haqida ***tasavvurga ega bo'lishi;***
- tarixiy tadqiqotlar mavzusini tanlash va muammolarni shakllanirish, va ularni asoslash usullari, tarixiy tadqiqot ishlarini ijtimoisiyosiy va nazariy